
Mobil aloqa xizmati yaxshilanmoqda

Rishton tumani Yangi Avlod MFY hududi yashovchi fuqarolar ko'p bora mobil aloqa sifati borasida murojaat qilishar edi.

Mazkur mahallaga Uzmobile filiali baza stantsiyasi o'rnatilib, ushbu hududda istiqomat qiluvchi aholi mobil aloqa xizmatlaridan yuqori saviyada foydalanishi yo'lga qo'yilmoqda. Buni ushbu hudud faollari va keng jamoatchilik katta xursandchilik bilan qabul qilishdi.

Mazkur hududda avvallari aloqa xizmatlaridan foydalanishda qiyinchiliklar yuzaga kelar edi. Endi esa bunga barham berilib, chekka hududlarda mobil aloqa qamrovini kengaytirish va aholi punktlarini 100 foiz aloqa qamrovi bilan ta'minlash chora-tadbirlari natijasida mobil aloqa baza stantsiyasi o'rnatildi.

2025-01-22 14:14:04